

<http://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)  
ISSN 2181-1717 (E)



# ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТАДҚИҚОТЛАР

# ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

# EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

7  
—  
2021

**ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТАД҆ҚИҚОТЛАР**  
**ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ**  
**EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH**



№ 7, 2021  
декабрь

| <p>Муассис:</p> <p>Бухоро давлат университети<br/>Фан ва таълим МЧЖ</p> <p><u>Бош мухаррир:</u> Маъмуроў Баҳодир<br/>Бахшуллаевич</p> <p><u>Жамоатчилик кенгапси раиси:</u><br/>Хамидов Обиджон Ҳафизович,<br/>Бухоро давлат университети<br/>ректори.</p> <p><u>Тахририят<br/>кенгапси раиси:</u><br/>Махмудов Мэлс Ҳасанович</p> <p><u>Масъул котиб:</u> Акрамова Гулбахор<br/>Ренатовна</p> <p><u>Тахририят манзили:</u><br/>Бухоро шаҳар,<br/>Қ.Муртазоев кӯчаси, 16-й</p> <p><u>Телефон:</u><br/>+998(90)744-00-22</p> <p><u>E-mail:</u><br/>eirjurnal2020@gmail.com</p> <p><u>Журналнинг электрон сайти:</u><br/>www.interscience.uz</p> <p>Журнал ОАК Раёсатининг 2021 йил<br/>30 сентбрдаги 306/6-сон Қарори билан<br/>ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ,<br/>ФИЛОЛОГИЯ, ТАРИХ</p> <p>ФАНЛАРИ бўйича фалсафа<br/>доктори (PhD) ва фан доктори (DSc)<br/>илемний даражасига талағорларнинг<br/>диссертация ишлари юзасидан асосий<br/>илемний натижаларини чоп этиши тавсия<br/>етилган илемний нашрлар рўйхатига<br/>киритилган</p> <p>Босишга руҳсат этилди: 25.12.2021 й.<br/>Қоғоз бичими 60x84 1/8. б/т.12,5.<br/>Буюртма рақами 12<br/>«Бухоро вилоят босмахонаси»<br/>МЧЖда чоп этилди. Бухоро шаҳар</p> <p>Журнал 28.07.2021 йилда 9305<br/>раками билан Ўзбекистон Оммавий<br/>аҳборот воситалари давлат<br/>рўйхатидан ўтган.</p> <p>Журнал 2021 йил ноябрь ойидан<br/>бошлаб ҳар ойда 1 марта ўзбек, рус<br/>ва инглиз тилларида чоп этилади.</p> <p>«Таълим ва инновацион<br/>тадқиқотлар» халқаро илемний-ме-<br/>тодик журналидан кўчириб босиши<br/>тахририятнинг розилиги билан<br/>амалга оширилади</p> <p>Мақолада келтирилган фактларнинг<br/>тўғрилиги учун муаллиф масъуллар</p> | <table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <thead> <tr> <th colspan="2" style="text-align: center; padding: 5px;">07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td style="width: 70%;">Валихонова Г. К. XIX-XX аср бошларида<br/>Фарғона водийсининг полиэтник ҳолати</td><td style="width: 30%; text-align: center; vertical-align: bottom;">7</td></tr> <tr> <td>Жумаев Р.Ғ. Ҳуқуқий таълим – эркин<br/>фуқаролик жамияти барпо этишининг муҳим<br/>мезони</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">15</td></tr> <tr> <td>Ҳамаев Н.М. Даврий матбуот Ўзбекистондаги<br/>истиқлол учун қуролли ҳаракат раҳбарлари<br/>ва уларнинг вазифалари хусусида</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">20</td></tr> <tr> <td>Юсупов Р. М. Ўрта Осиё ва Қозоғистон<br/>мусулмонлари диний назорати мусулмон<br/>мамлакатларининг диний ташкилотлари<br/>билин алоқалари</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">31</td></tr> <tr> <td>Тўрабоева Я. Р. Ўзбекистонда туризмни<br/>ривожлантиришга қаратилган амалий<br/>ҳаракатлар: муаммо ва натижалар таҳлили</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">36</td></tr> <tr> <td>Юсупов Р.М. Совет даври хукмронлиги<br/>даврида ўзбекистон мусулмонларининг диний<br/>масалалалари</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">41</td></tr> <tr> <td>Qodirova R. M. Milliy maorif tizimi va ta'limda<br/>sovet modelini tatbiq qilinishi borasidagi ilk<br/>qadamlar: islohotlar va oqibatlar</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">45</td></tr> <tr> <td>Курбанова Д. Ш. Қадимги ва ilk ўрта асрлар<br/>даври Хоразм аҳолисининг диний урф-<br/>одатларини археологик маълумотлар асосида<br/>тиклаш муаммоси</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">50</td></tr> <tr> <td colspan="2" style="text-align: center; padding: 5px;">10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</td></tr> <tr> <td>Ражабов Д. З., Рўзиев Н.Қ. Ўзбек халқ афсона<br/>ва ривоятларининг инглизча таржима-сида<br/>миллий образ ва тасвир воситалари</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">57</td></tr> <tr> <td>Жамилова Б. С. Истиқлол даври ўсмирлар<br/>қиссаларининг жанрий, бадиий-композицион<br/>хусусиятлари</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">64</td></tr> <tr> <td>Mamatqulova N. B., Xakimova M. G‘. Alpomish<br/>dostoni eposining asosiy tendensiyalari</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">72</td></tr> <tr> <td>Турсунов Б. Ўзбекистонда хорижий тилларни<br/>ўқитишининг шаклланиши ва унинг тарихий<br/>босқичлари</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">78</td></tr> <tr> <td>Ro'ziyeva S. H. Modelleshtirish texnologiyasi<br/>umumiy o'rta ta'limda sintaksis bo'simini<br/>o'qitishda optimal yondashuv sifatida</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">86</td></tr> <tr> <td>Altinova F. P.Oxunjonova F. A. Muqimiyl, furqat,<br/>hazaniy ijodida zullisonaynlik</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">95</td></tr> <tr> <td colspan="2" style="text-align: center; padding: 5px;">13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</td></tr> <tr> <td>Шин Агриппина В. Организация и<br/>планирование образовательного процесса<br/>обучения дошкольного образования на основе<br/>личностно-ориентированного подхода</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">100</td></tr> <tr> <td>Абдурахимова Л. А. Тиббий таълим<br/>сифатини оширишда замонавий педагогик<br/>тех-нологияларнинг қўлланилиши</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">112</td></tr> </tbody> </table> | 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ |  | Валихонова Г. К. XIX-XX аср бошларида<br>Фарғона водийсининг полиэтник ҳолати | 7 | Жумаев Р.Ғ. Ҳуқуқий таълим – эркин<br>фуқаролик жамияти барпо этишининг муҳим<br>мезони | 15 | Ҳамаев Н.М. Даврий матбуот Ўзбекистондаги<br>истиқлол учун қуролли ҳаракат раҳбарлари<br>ва уларнинг вазифалари хусусида | 20 | Юсупов Р. М. Ўрта Осиё ва Қозоғистон<br>мусулмонлари диний назорати мусулмон<br>мамлакатларининг диний ташкилотлари<br>билин алоқалари | 31 | Тўрабоева Я. Р. Ўзбекистонда туризмни<br>ривожлантиришга қаратилган амалий<br>ҳаракатлар: муаммо ва натижалар таҳлили | 36 | Юсупов Р.М. Совет даври хукмронлиги<br>даврида ўзбекистон мусулмонларининг диний<br>масалалалари | 41 | Qodirova R. M. Milliy maorif tizimi va ta'limda<br>sovet modelini tatbiq qilinishi borasidagi ilk<br>qadamlar: islohotlar va oqibatlar | 45 | Курбанова Д. Ш. Қадимги ва ilk ўрта асрлар<br>даври Хоразм аҳолисининг диний урф-<br>одатларини археологик маълумотлар асосида<br>тиклаш муаммоси | 50 | 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ |  | Ражабов Д. З., Рўзиев Н.Қ. Ўзбек халқ афсона<br>ва ривоятларининг инглизча таржима-сида<br>миллий образ ва тасвир воситалари | 57 | Жамилова Б. С. Истиқлол даври ўсмирлар<br>қиссаларининг жанрий, бадиий-композицион<br>хусусиятлари | 64 | Mamatqulova N. B., Xakimova M. G‘. Alpomish<br>dostoni eposining asosiy tendensiyalari | 72 | Турсунов Б. Ўзбекистонда хорижий тилларни<br>ўқитишининг шаклланиши ва унинг тарихий<br>босқичлари | 78 | Ro'ziyeva S. H. Modelleshtirish texnologiyasi<br>umumiy o'rta ta'limda sintaksis bo'simini<br>o'qitishda optimal yondashuv sifatida | 86 | Altinova F. P.Oxunjonova F. A. Muqimiyl, furqat,<br>hazaniy ijodida zullisonaynlik | 95 | 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ |  | Шин Агриппина В. Организация и<br>планирование образовательного процесса<br>обучения дошкольного образования на основе<br>личностно-ориентированного подхода | 100 | Абдурахимова Л. А. Тиббий таълим<br>сифатини оширишда замонавий педагогик<br>тех-нологияларнинг қўлланилиши | 112 |
|---|--|--------------------------|--|---|---|---|----|--|----|--|----|---|----|--|----|--|----|---|----|------------------------------|--|--|----|--|----|--|----|--|----|---|----|--|----|-------------------------------|--|--|-----|---|-----|
| 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ  |  |                          |  |   |   |   |    |  |    |  |    |   |    |  |    |  |    |   |    |                              |  |  |    |  |    |  |    |  |    |   |    |  |    |                               |  |  |     |   |     |
| Валихонова Г. К. XIX-XX аср бошларида<br>Фарғона водийсининг полиэтник ҳолати   | 7  |                          |  |   |   |   |    |  |    |  |    |   |    |  |    |  |    |   |    |                              |  |  |    |  |    |  |    |  |    |   |    |  |    |                               |  |  |     |   |     |
| Жумаев Р.Ғ. Ҳуқуқий таълим – эркин<br>фуқаролик жамияти барпо этишининг муҳим<br>мезони   | 15   |                          |  |   |   |   |    |  |    |  |    |   |    |  |    |  |    |   |    |                              |  |  |    |  |    |  |    |  |    |   |    |  |    |                               |  |  |     |   |     |
| Ҳамаев Н.М. Даврий матбуот Ўзбекистондаги<br>истиқлол учун қуролли ҳаракат раҳбарлари<br>ва уларнинг вазифалари хусусида  | 20   |                          |  |   |   |   |    |  |    |  |    |   |    |  |    |  |    |   |    |                              |  |  |    |  |    |  |    |  |    |   |    |  |    |                               |  |  |     |   |     |
| Юсупов Р. М. Ўрта Осиё ва Қозоғистон<br>мусулмонлари диний назорати мусулмон<br>мамлакатларининг диний ташкилотлари<br>билин алоқалари  | 31   |                          |  |   |   |   |    |  |    |  |    |   |    |  |    |  |    |   |    |                              |  |  |    |  |    |  |    |  |    |   |    |  |    |                               |  |  |     |   |     |
| Тўрабоева Я. Р. Ўзбекистонда туризмни<br>ривожлантиришга қаратилган амалий<br>ҳаракатлар: муаммо ва натижалар таҳлили   | 36   |                          |  |   |   |   |    |  |    |  |    |   |    |  |    |  |    |   |    |                              |  |  |    |  |    |  |    |  |    |   |    |  |    |                               |  |  |     |   |     |
| Юсупов Р.М. Совет даври хукмронлиги<br>даврида ўзбекистон мусулмонларининг диний<br>масалалалари  | 41   |                          |  |   |   |   |    |  |    |  |    |   |    |  |    |  |    |   |    |                              |  |  |    |  |    |  |    |  |    |   |    |  |    |                               |  |  |     |   |     |
| Qodirova R. M. Milliy maorif tizimi va ta'limda<br>sovet modelini tatbiq qilinishi borasidagi ilk<br>qadamlar: islohotlar va oqibatlar  | 45   |                          |  |   |   |   |    |  |    |  |    |   |    |  |    |  |    |   |    |                              |  |  |    |  |    |  |    |  |    |   |    |  |    |                               |  |  |     |   |     |
| Курбанова Д. Ш. Қадимги ва ilk ўрта асрлар<br>даври Хоразм аҳолисининг диний урф-<br>одатларини археологик маълумотлар асосида<br>тиклаш муаммоси   | 50   |                          |  |   |   |   |    |  |    |  |    |   |    |  |    |  |    |   |    |                              |  |  |    |  |    |  |    |  |    |   |    |  |    |                               |  |  |     |   |     |
| 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ  |  |                          |  |   |   |   |    |  |    |  |    |   |    |  |    |  |    |   |    |                              |  |  |    |  |    |  |    |  |    |   |    |  |    |                               |  |  |     |   |     |
| Ражабов Д. З., Рўзиев Н.Қ. Ўзбек халқ афсона<br>ва ривоятларининг инглизча таржима-сида<br>миллий образ ва тасвир воситалари  | 57   |                          |  |   |   |   |    |  |    |  |    |   |    |  |    |  |    |   |    |                              |  |  |    |  |    |  |    |  |    |   |    |  |    |                               |  |  |     |   |     |
| Жамилова Б. С. Истиқлол даври ўсмирлар<br>қиссаларининг жанрий, бадиий-композицион<br>хусусиятлари  | 64   |                          |  |   |   |   |    |  |    |  |    |   |    |  |    |  |    |   |    |                              |  |  |    |  |    |  |    |  |    |   |    |  |    |                               |  |  |     |   |     |
| Mamatqulova N. B., Xakimova M. G‘. Alpomish<br>dostoni eposining asosiy tendensiyalari  | 72   |                          |  |   |   |   |    |  |    |  |    |   |    |  |    |  |    |   |    |                              |  |  |    |  |    |  |    |  |    |   |    |  |    |                               |  |  |     |   |     |
| Турсунов Б. Ўзбекистонда хорижий тилларни<br>ўқитишининг шаклланиши ва унинг тарихий<br>босқичлари  | 78   |                          |  |   |   |   |    |  |    |  |    |   |    |  |    |  |    |   |    |                              |  |  |    |  |    |  |    |  |    |   |    |  |    |                               |  |  |     |   |     |
| Ro'ziyeva S. H. Modelleshtirish texnologiyasi<br>umumiy o'rta ta'limda sintaksis bo'simini<br>o'qitishda optimal yondashuv sifatida   | 86   |                          |  |   |   |   |    |  |    |  |    |   |    |  |    |  |    |   |    |                              |  |  |    |  |    |  |    |  |    |   |    |  |    |                               |  |  |     |   |     |
| Altinova F. P.Oxunjonova F. A. Muqimiyl, furqat,<br>hazaniy ijodida zullisonaynlik  | 95   |                          |  |   |   |   |    |  |    |  |    |   |    |  |    |  |    |   |    |                              |  |  |    |  |    |  |    |  |    |   |    |  |    |                               |  |  |     |   |     |
| 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ   |  |                          |  |   |   |   |    |  |    |  |    |   |    |  |    |  |    |   |    |                              |  |  |    |  |    |  |    |  |    |   |    |  |    |                               |  |  |     |   |     |
| Шин Агриппина В. Организация и<br>планирование образовательного процесса<br>обучения дошкольного образования на основе<br>личностно-ориентированного подхода  | 100  |                          |  |   |   |   |    |  |    |  |    |   |    |  |    |  |    |   |    |                              |  |  |    |  |    |  |    |  |    |   |    |  |    |                               |  |  |     |   |     |
| Абдурахимова Л. А. Тиббий таълим<br>сифатини оширишда замонавий педагогик<br>тех-нологияларнинг қўлланилиши   | 112  |                          |  |   |   |   |    |  |    |  |    |   |    |  |    |  |    |   |    |                              |  |  |    |  |    |  |    |  |    |   |    |  |    |                               |  |  |     |   |     |



|   |     |
|---|-----|
| Жуманиёзова М. Т. Малака ошириш жараёнида ижтимоий-гуманитар йўналиш ўқитувчиларининг касбий креативлигини шакллантириш методлари ва воситалари                                 | 118 |
| Umaraliyeva M.A., Gulmonova D.B. Ta'limjarayonini takomillashtirishning modifikatsion imkoniyatlari   | 127 |
| Турлибаева Г. М. Ихтисослашган умумтаълим мактаби ўқитувчининг иқтидорли ўқувчилар стратегияси  | 135 |
| Халирова X. М. Неонологик ёндашув асосида бошлангич синф ўқувчилари онгида “тарбия” фанини шакллантириш механизmlарини такомиллаштириш ижтимоий зарурият сифатида               | 139 |
| Qosimov F. M., Qosimova M. M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika o'qitishda o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari mutanosibligini ta'minlash yo'llari            | 147 |
| Почукаева Г. В., Маджуга А. Г. Эмпатическая культура личности как основа проектирования человекомерных систем: опыт концептуализации проблемы                                   | 156 |
| Sayfullayeva D. A., Bozorova M. Sh. Umumkasbiy fanlarni o'qitishda dasturiy vositalardan foydalanish  | 164 |
| Нуруллоев Л. Л. Енгил атлетика тўгаракларида шуғулланувчи болаларнинг умумий жисмоний тайёргарлиги кўрсраткичлари (умумтаълим мактаблари мисолида)                              | 173 |
| Абдуваҳобова Д. Э., Зияева М. Ф. Таълим жараёнида маънавий-маърифий ишлари-ни самарали ташкил этиш йўллари, шакл, метод ва воситалари   | 180 |
| Рискулова К.Д. Чет тиллари ўқитувчилари компетентлигини шаклланишида халқаро хуқуқий-меъёрий мезонларни аҳамияти  | 186 |
| Гаппарова М. Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini korparativ yondashuv asosida tashkil etish va boshqarish (Maktabgacha ta'lim yo'nalishi misolida) | 196 |
| Hamroyev R. R. Tibbiyot institutlarida axborot texnologiyalar fanini o'qitishning jihatlari   | 201 |
| Raupova Sh. A., Parpieva M. S. Features of medical and pedagogical control in the process of physical education   | 208 |
| Sayfullayeva D. A., Baxronova Sh. I.a Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning kreativligini rivojlantirish                                  | 213 |
| Юсупова С. Н. Фарғона водийсида миллий-маданий марказларнинг миллатлараро муносабатларни уйғунлаштиришдаги ўрни   | 225 |
| Икромов Х. О. Талаба ёшларда фаол фуқаролик ва хаётий позициясини шакллантиришнинг фалсафий, хуқуқий ва ахлоқий жиҳатлари   | 234 |
| Комолова Ф. К. Ўзбекистон олий таълим тизимидаги ўзгаришлар   | 240 |
| Mo'minova D. K. Texnologik ta'lim yo'nalishida ixtisoslik fanlarini o'qitishda "analogiyalar" texnologiyasidan foydalanish  | 244 |
| Jo'rayev A. R., Xazratova Sh. X. Milliy hunarmandchilik makkablarida yoshlarni hunarmandchilik tadbirkorligiga yo'naltirish   | 249 |
| Sayfullayeva D. A., Rayimova D. D. Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fanini o'qitishda kelajakka sayohat texnologiyasidan foydalanish                                       | 256 |
| Djalolova D. F. Ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yilgan talablar va pedagogik jarayondagi qoidalar  | 267 |

## TEXNIK IJODKORLIK VA KONSTRUKSIYALASH FANINI O'QITISHDA KELAJAKKA SAYOHAT TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.74.17.034>

Sayfullayeva Dilafruz Axmadovna,  
Buxoro davlat universiteti Texnologik ta'lif kafedrasini dotsenti

Rayimova Dilnavoz Dilmurodovna,  
Buxoro davlat universiteti Texnologik ta'lif kafedrasini 2-kurs magistri

*Annotatsiya: Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fanini o'qitishda tikuvcilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirishda kompyuter dasturlaridan foydalanish metodikasi texnologiyalardan foydalanib dars ishlanmasi ishlab chiqilgan. Texnologiya fani o'qituvchilarining tikuvcilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirishda kompyuter dasturlaridan foydalanish metodikasi dars jarayonida qo'llanilishi haqida ma'lumotlar bayon etilgan.*

*Kalit so'zlar: bilim, ko'nikma, malaka, individual, ko'rgazma, texnologiya, o'qitish, foydalanish, rivojlantirish, innovatsiya, kelajakga sayohat, baholash, metod, dars, dasturiy vositalar.*

## МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОМПЬЮТЕРНЫХ ПРОГРАММ ПРИ КОНСТРУИРОВАНИИ И МОДЕЛИРОВАНИИ ШВЕЙНЫХ ИЗДЕЛИЙ

Sayfullaeva Dilafruz Axmadovna,  
доцент кафедры технологического образования Бухарского  
государственного университета

Райимова Дильнавоз Дилмурадовна,  
магистр 2 курса кафедры технологического образования  
Бухарского государственного университета

*Аннотация: методика использования компьютерных программ конструирования и моделирования швейных изделий при обучении техническому творчеству и конструированию разработана разработка урока с использованием технологий. Изложена информация о применении в процессе урока методик использования компьютерных программ для конструирования и моделирования швейных изделий учителями-технологами.*

*Ключевые слова: знания, навыки, квалификация, индивидуальный, выставка, технология, обучение, использование, развитие, креатив, инновация, ленточное планирование, оценка, метод, урок, рукав, шитье, гляжка.*



## METHODS OF USING COMPUTER PROGRAMS IN THE DESIGN AND MODELING OF SEWING ITEMS

*Sayfullaeva Dilafruz Akhmadovna,  
is an associate professor of the Department of technological education  
of Bukhara State University*

*Rayimova Dilnavoz Dilmurodovna,  
Bukhara State University 2-year master of technological education*

*Abstract:: in the teaching of technical creativity and the science of Constructivism, the methodology of using computer programs in the design and modeling of sewing items has been developed using technologies. The information on the application of the methodology of using computer programs in the design and modeling of sewing items of technology science teachers in the course process is explained.*

*Keywords:* knowledge, skills, qualification, individual, visualization, technology, teaching, use, development, creative, innovation, tape planning, evaluation, method, lesson, software tools.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy salohiyatni mustahkamlash, ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli talaba yoshlarni ilmiy faoliyati bilan shug‘ullanishiga hamda malakali pedagog kadrlar tayyorlashda katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Ayniqsa ta’lim jarayonida o‘qitishning innovasion texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning innovastion texnologiyalarni qo‘llab o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Innovasion ta’lim metodlarini va texnologiyalarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

O‘qituvchi dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilonqa tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligini muntazam rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda suxbat, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar va kelajakka sayohat o‘qitish texnologiyalari kabi metod va texnologiyalarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga imkon yaratadi.

Oliy ta’lim muassasalarida malakali kadrlar tayyorlashda ilg‘or ta’lim texnologiyalari va metodlardan unumli foydalananish talab etiladi. Ana shunday texnologiyalardan biri bu “Kelajakga sayohat” texnologiyasidir. Oliy ta’lim muassasalarida texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fanlarni “Kelajakga sayohat” texnologiyasini qo‘llab, o‘qitish yuqori samara beradi.

Bugungi kun yoshlarni ilm, bilim olish jarayonini takomillashtirishga

xizmat qiladi.

Kelajakka sayohat o‘qitish texnologiyasi - texnik ijodkorlik va konstruksiyalash ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi o‘qitish texnologiyasi hisoblanadi. Kelajakka sayohat o‘qitish texnologiyasi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirot etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirot etadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish maqsadida texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fanini kelajakka sayohat o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish pedagog-psixolog olimlar tomonidan isbotlangan. Shu bois, ayrim Kelajakka sayohat o‘qitish texnologiyalardan foydalanish hollarini ko‘rib chiqamiz. Kelajakka sayohat o‘qitish texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

Kelajakka sayohat texnologiyasi – bu kelajakda jamiyat rivojlanishi va insoniyat taraqqiyoti uchun yaratiladigan g‘oyalar (hatto amalga oshirilishi qiyin bo‘lgan) va ularni amalda tadbiq etish yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat.

Kelajakka sayohat texnologiyasini 4 ta amalga oshirish bosqichlari mavjud.

Bular: amalga oshirish bosqichlari

Tayyorlov va rejalashtirish bosqichi.

Konstruktiv “Kritik fikrlash” bosqichi.

“Fantaziya” bosqichi.

“Amalga oshirish” bosqichi.

1. Tayyorlov va rejalashtirish bosqichi:

Mavzuga oid savol, topshiriq yoki muammoli vaziyatlarni ishlab chiqish;

Ko‘rish, eshitish, qabul qilish va sezishni ta’minlovchi ko‘rgazmali materiallardan foydalanish;

Xarakterli foto materiallarni qo‘llash;

Talabalar guruhlarda ishlash uchun ish quollarini va didaktik vositalarni tayyorlash.

2. “Konstruktiv va kritik fikrlash” bosqichi:

Berilgan savol yoki topshiriq mazmuniga oid muammo va kamchiliklarni aniqlash;

Muhokama faqat mavzuga oid bo‘lishi lozim;

Qiziqtiruvchi savollardan foydalanish, masalan “Nimadan qo‘rqasan, nima senga xalaqt beradi, qanday muammong bor ” v.h.

Barcha ishtirotchilar fikri muhim;

Barcha fikrlar ichidan 10 ta eng muhimi tanlab olinadi.

3. “Fantaziya” bosqichi:

Har bir muammo echimi bo‘yicha bir nechta g‘oyalarni ilgari surish;

Muhokama orqali har bir muammo echimi bo‘yicha eng yaxshi g‘oyalarni tanlash;

G‘oya va fikrlarni umumlashtirish va baholash;

Barcha g‘oya va fikrlarni ko‘rgazmali qilib tasvirlash.

Takliflarni ko‘rgazmali aks ettiruvchi taqdimot tayyorlash.

#### 4. Amalga oshirish bosqichi:

Muammolarni hal qilishga qaratilgan g‘oyalarni amalga oshirish imkoniyatlarini aniqlash;

Asosiy takliflarni shakllantirish;

Talablar va aniq modellarni aniqlash;

5 va 15 yillikda amalga oshiriladigan ishlarlarni aniqlash;

Umumlashtirilgan loyihani tayyorlash;

Loyihani amalga oshirish rejasini ishlab chiqish;

Mavzuga oid topshiriqlar beriladi, ta‘lim oluvchilar kelajakka sayohat texnologiyasining amalga oshirish bosqichlaridan foydalaniib, o‘z fikrlarini bayon etib jadvalni to‘ldirib beradilar.

|   |                      |                             |
|---|----------------------|-----------------------------|
| 1.Konstruktiv va kritik fikrlash bosqichi | “Fantaziya” bosqichi | 3. Amalga oshirish bosqichi |
|   |                      |                             |
|   |                      |                             |
|   |                      |                             |

Mustaqil ravishda belgilash, kichik juftliklarda o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazib olish yoki o‘z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikr bo‘la olish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish.Ushbu texnologiya asosida tashkil etilganida mashg‘ulotdan Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fani bo‘yicha namuna keltiramiz.

#### AMALIY DARS ISHLANMASI

Mashg‘ulotning borishi

I. Tashkiliy qism – 7 daqiqa.

Salomlashish, talabalar davomatini aniqlash, ish o‘rinlari va amaliy xonasining sanitariya-gigiena holatini ko‘zdan kechirish. Mashg‘ulotni o‘tishdan oldin reja bilan tanishtiriladi:

Reja:

1.Ayollar ustki kiyimlari eskizi modellarini yaratish va rangning ahamiyati.

2.Ayollar ustki kiyimlarini bezashda ishlatiladigan naqshlar, munchoqlar,va furnituralar.

3. Ayollar ustki kiyimlarini uslublarda bezash.

4.Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fanini kompyuter dasturlari orqali tushuntirish.

II. Asosiy qism

Mashg‘ulot 1-qismi - 13 daqiqa

Talabalar turli xil shaklga ega bo‘lgan kartochkalarni tortib, o‘z juftliklarni aniqlaydi. Har biri 2 kishidan iborat kichik juftliklar hosil bo‘ladi. Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fanidan mashg‘ulot mavzusi, maqsadi, mashg‘ulotdan kutiladigan natijalar, uni tashkil etish va o‘tkazish tartibini

tushuntiradi, talabalarga baholash mezonlarini e'lon qiladi. Talabalarning o'tilgan mavzularga oid bilimlarini aniqlaydi. Buning uchun o'tgan mavzuga oid savollar beradi.

Juftliklarga bir xil savollarni beradi.

1. Kostyum deganda nimani tushunasiz.?

2. Uslub.....bu?

3. Moda so'zini ta'riflang?

4. Rangni tavsiflang?

5. Kiyimlarga ko'yiladigan talablarni ayting?

Mavzu bo'yicha asosiy ma'lumotlarni aytib o'tadi.

O'qituvchi talabalar texnik ijodkorlik va konstruksiyalashni klassik uslubining mazmuni ochib beradi klassik uslub-chiziqlarni sipoligi va oddiyligi, bichimning mantiqiyligi, ko'zga tashlanmaydigan juda oddiy siymo bo'lib, e'tiborni o'ziga sifati bilan tortadi. Dasturiy vositalar uslub asosida, uning ba'zi elementlarini kombinatsiya qilib, har xil mikrouslublar shakllanadi. Dasturiy vositalardan foydalanim libosning barcha elementlarini kiritish mumkinligini tushuntiradi. O'qituvchi talabalarga Chanel uslubining paydo bo'lish tarixini, xususiyatlarini, Koko Chanel uslubi – bu erkin ayolni elegant – amaliy uslub hisoblanishini, Tviddan kostyumlar, qora duxobadan kichkina ko'yaklar va yaltiroq bashang liboslar hisoblanishini, Madam Chanel kostyumida o'z fikrini amalga oshirdi: "Men modaga qarshiman, chunki u tez o'tib ketadi. Bahor kelgani uchun kiyimlarni tashlanganini ko'rishga toqatim yo'q" degan fikrlarni aytib o'tganligini bayon qiladi.

Minimalizm uslubining oddiyligini, bu uslubga qachon talab paydo bo'lganini o'qituvchi talabalarga taqdimot qilib tushuntirib beradi. Minimalizm uslubi yoki purizm, oddiy aytulganda – soddalik, odatda davrlar qirrasida ro'y berdi, qachonki eskisi jonga tekgan, yangisi esa hali yaratilmagan. Aynan shu vaqtida jamoada "toza varaqdan hayotni boshlash" talab paydo bo'ladi. Turli davrlarda va mamlakatlarda minimalizm o'ziga xos bo'lganligini e'tirof etadi.

Dars davomida o'qituvchi Animal uslub kiyimda charm va mo'ynani qo'llashni, Animal uslub modadan chiqmasligini u klassik deb ham hisoblanishini takidlaydi. Zamonaviy moda bu uslubda xayvonlarning charmni imitatsiya qiladigan materiallar qo'llaniladi. Animal uslubi kundalik kiyim modasi emasligini tushuntirib beradi.

O'qituvchi talabalarga Fantazi uslubini boshqa uslublardan farqli jixatlarini, asosiy xususiyatlarini takidlaydi. Zamonaviy moda romantikaga o'z ko'rinishini namoyon etadi. Fantaziya uslubi avangard uslubidan farqi – zamonaviy modani ifodasi bo'lmaydi. Romantik uslub – bu o'tmish va kelajakni fantastik siymolari. Fantazi uslubini asosiy xususiyatlari: noreallik, ertaklik, syurrealik, ajablik, jasurlik. Bu uslub tomashabinni hayratga soladi. Fantazi liboslar siluetlari har xil va o'zgacha. Bezak sifatida bantlar, munchoqlar, charm va zamsha, kashta va b. qo'llaniladi. Fantazi uslubi dizaynerning ijodini cheklamaydi.


O'qituvchi dars jarayonida talabalarga kostyumlardagi rang va shakl qanday ahamiyatligini, kostyuming rangli echimi kompoziston g'oyasi bilan

chambarchas bog'liqligini, ular illyuziyalar bilan bog'liqligini tushuntirib beradi.

Dizayn — predmetli muhitni, manzarali kommunikatsiya va axborotni ishlab chiqish, funksional, samarali asoslarda loyihalashtirishning badiiy faoliyat turidir. Dizayn o'z ishida: texnik konstruksiyalash, tuzilmalarni ishlab chiqishdan tortib, kompozitsion shaklni hosil qilish, uslubni ishlab chiqish; funksional tahlil qilishdan tortib, predmetli muhit tashkiliy, konseptual modellarigacha loyihalashtirishning barcha vositalaridan foydalanadi. Biroq mana shu barcha vositalar dizaynerning predmetli va kommunikatsiyalar olamining butun to'plamini umummadaniyligi jihatlarini aniqlashi, badiiy-obrazli tushunishi kabi omillarga bo'ysunadi.

Bu bir qator muhim metodlar — funksional tahlil qilish, fazoviy yoki grafik kompozitsion tuzilmalarni yaratish, uslublashtirish va shu kabilarga asoslanadi. Dizaynning maqsadi — insонning turli ehtiyojlarini, shu jumladan, o'zini madaniy ifoda etish, badiiy-obrazli modellar asosida hayoti va faoliyatini predmetli va axborot muhitini samarali tashkil etish ehtiyojini qondiradi.

Dizayn tarixi, dizaynning o'zi kabi, o'z ichki janrlariga, sohasiga ega. Moda va kostyum tarixi, grafik dizayn va reklama tarixi, interyer va ko'rgazma dizayni, idishlar va mebellar, matolar va maishiy asboblar tarixi mavjud. Biroq tor ixtisoslashganligiga qaramasdan, mana shu barcha sohalarda o'z muammolari ham, ularni birlashtiruvchi tomoni ham, loyihalash yondashishi, loyihalash madaniyati, ko'rish madaniyati, funksional, texnologik va badiiy muammolari ham mavjud. Loyihalashtirish — badiiy faoliyat turi sifatida dizayn tarixi ilmiy-texnik va ko'rgazmali, badiiy madaniyat bilan o'zaro bog'liq holda sodir bo'ladi, shuning uchun u texnikada, muhandislik va badiiy ijodda albatta o'z ta'sirini ko'rsatadi.



**1-rasm.Kiyimni loyihalash va modellashtirish**

Keyingi davrda dizayn keng tarqalgan ommaviy sohaga aylandi, chunki ijodiy shaxslar qator soha mahsulotlarini qiziqarlilashtirdi, hayotni tashkil etishda, madaniy rivojlantirishda dizaynerlarning imkoniyatlarini namoyish etdi. Germaniya, Italiya, AQSH, Yaponiya davlatlari dizaynerlik yo'nalishida yetakchi mamlakatlar hisoblanadi. Ishlab chiqarish yoki savdo sohasi dizaynning doimiy buyurtmachilarini hisoblanadilar. Skandinaviya

mamlakatlari, Yaponiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya kabi mamlakatlarda deyarli barcha faoliyat turlariga badiiy, predmetli madaniy, ilmiy-texnik ijodkorlikka boy dizayn kirib borgan.

Dizayn — bu bir vaqtida madaniyat mahsulidir hamda madaniy qurilish vositasi va madaniyatni faol shakllantiruvchi omildir. Bugungi kunda «dizayn» so‘zi: muhandislik ishlaridan tortib, to soch turmaklashgacha, biror tadbir uchun joy dekoratsiyasi, fotodizayndan — landshaft, ya’ni manzara dizaynigacha va hatto oshpazlik san’atida ham juda ko‘p foydalaniadi. Shu boisdan, so‘z boyligimizga «Liboslar dizaynerligi», «Mebellar dizayni», «Qandillar dizayni» va boshqa birikmalar kirib keldi. Dizaynerlik sohasi o‘zining chegaralarini yo‘qotib, turli faoliyat sohalariga kirib bormoqda. Liboslar dizayni ham shular jumlasiga kiradi. Liboslar dizayni loyihalashtirish, modellashtirish va tuzilishni ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Avvallari moda rassom-modelyer, dizaynerlarning yakka, nodir ishlariga va modelyerning tikuv sanoatida ommaviy ishlab chiqariladigan mahsulotga ajratib kelingan. Bugungi kunda nodir asarlarni ham va tikuv sanoati ommaviy ishlab chiqariladigan mahsulotini ham liboslar dizayniga kiritadilar. Liboslar yangi namunalarini yaratuvchilar modelyer deb ataladi.

Modelyer — kiyimlar modellarini, mahsulot nusxalari namunalarini tayyorlash bo‘yicha mutaxassisdir.

Dizayn san’atining mana shunday kengayib borishi — tabiiy jarayondir. Madaniy loyihalashtirishga ichki xususiyati jihatidan xos bo‘lib, barcha faoliyat turlarida ozgina bo‘lsa ham dizaynni ifoda etuvchi rejallashtirish va tashkil yetish, tuzilish, harakatlar ketma-ketligi kabi elementlar mavjud. Dizayn san’atining tarixini bilish, kasbiy faoliyat mazmunini anglab etish bilan birga, boshqa kasb turlariga obrazli modellashtirish, rejallashtirish, takomillashtirish metodlarini tatbiq etishga ham yordam beradi.

Dizayner (ingliz, fransuz va nemis tillarida uslubchi tushunchasiga mos keladi) — modelyerni ko‘pincha aynan mana shunday ataydilar, bu kiyim ishlab chiqarish va yaratish sohasidagi o‘zgarishlar hamda ommaviy ishlab chiqariladigan yangi ijodiy faoliyatning yuzaga kelishi bilan bog‘liqdir. Liboslar dizayneri boshqa mutaxassislar (konstrukturlar, texnologlar)ning ishtirokisiz, o‘zi mustaqil mahsulotni loyihalashtirish va tayyorlashi mumkin, chunki barcha kerakli ko‘nikmalarga egadir.

Liboslarni loyihalashtirish — tadqiqot, eskizlar, maketlar, modellar yaratish, hisoblashlar va mahsulot chizmasini qurish, tajriba namunalarini tayyorlashni o‘z ichiga oluvchi berilgan xususiyatlar bilan kiyimning yangi namunasini yaratishdan iborat. Libosni loyihalashtirish, umuman loyihalashtirishga o‘xhash bosqichlardan tashkil topadi va shu kabi metodlardan foydalananadi. Iste’molchilar talablarini o‘rganish asosida ijodiy konsepsiya yaratiladi, u eng avval obrazda gavdalantiriladi.

Liboslarni modellashtirish — kostyum kompozitsion g‘oyasiga mos ravishda materialni tanlash, kiyimning modeli g‘oyasini materialda amalga oshirishdan iborat.

Modellashtirish natijasi — tayyor mahsulotdan iborat bo‘ladi.



Zamonaviy kompyuter texnologiyalari loyiha ustida ishlash vaqtini qisqartiradi, shu bilan birga, dizaynerning grafik va texnik imkoniyatlarini ancha kengaytiradi.

Badiiy-grafik va muhandislik-konstrukturlik, jumladan, uch o'lchamli grafika va multiplikatsiyani o'z ichiga oluvchi maxsus dasturlar to'plamlari bugungi kunda turli mutaxassislar butun bir guruhi o'rmini bosadi. Ular aniq hisoblarni amalga oshiradi, mahsulotning eng mos shaklini aniqlaydi, u yoki bu konstruksiyalar va materiallar to'plamini tanlashda yordam beradi, uch o'lchamli ko'rinishda va haqiqiy vaqt davomida turli holatlarda bo'lajak obyektni modellashtirishga imkon beradi, loyihalashtirilayotgan obyekt shakli virtual obrazlarini yaratadi va turli sharoitlarda vazifasini bajarishini tekshirishga imkon beradi.

Kompyuter dizaynida — CorelDraw va Adobe Photoshop, Photoshop kabi zamonaviy dasturlar bilimlari talab etiladi. Kompyuter dizayni vositasida milliy liboslarni yaratishda CorelDraw dasturi vektorli grafika bilan ishlashni chuqur o'rganish zarur. Liboslar dizayniga qiziqqan va ushbu sohada ishlashni rejalashtirayotganlar mazkur dasturlar bo'yicha nazariy bilim olish bilan birga, amaliy ko'nikmalarini egallashlari lozim. Kompyuter dizayni vositasida dizayner ijodiy loyihalarni yaratish, zamonaviy moda sohasida o'zini namoyon etishi uchun individual uslubni shakkantirish imkoniga ega bo'ladi. Bundan tashqari, libos dizaynni loyihalashtirish sohasida vektor grafikasi bilan ishlashga, matolarni qo'lda bezash texnikasiga ham ega bo'lishi mumkin.

Albatta, dizayn bugungi kunda o'tmishtagi qonuniyatlardan ancha chetlangan, ammo ho zirgi ko'rinishida dizayn — ancha yosh fan hisoblanadi. Dizayn ilgarilab bormoqda. Zamonaviy dizaynerlar kompyuterda chizmalarini amalga oshiradilar va modellar yaratadilar — turli grafik dasturlar va ularning imkoniyatlari haqiqiy nodir asarlarni yaratish imkoniyatini beradi. Grafik dizayn va dizaynerlik vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini egallash mumkin.

Keyingi davrda kompyuter dasturlari asosida ishlaydigan turli zamonaviy tikuv mashinalarida ham milliy, ham hozirgi davrda eng ommalashgan liboslarni yaratish mumkin. O'z yangi liboslar modellarini yaratishda ana shu yangi texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalansak, ish samaradorligini oshirgan bo'lamiz.

Talabalarni faollashtiradi, javoblarni tinglaydi. Mustaqil fikrini eshitishini tashkil qiladi. Yo'l-yo'riq va tavsiyalar beradi. O'tgan mavzuga oid bilimlarini mustahkamlaydi. Talabalarning ishchlari uchun zarur didaktik qo'llanmalar, ko'rsatma xaritalar, ilmiy adabiyotlar, chizilgan eskizlar namunalari, stol, doska, ta'limming texnik vositalar mayjud bo'lgan o'quv xonasida o'tkaziladi.

O'qituvchi talabalarga mashg'ulotning umumiyligi mazmuni va uni o'tkazish tartibini tushuntiradi. Mashg'ulotlar "Kelajakga sayoxat" texnologiyasi va ijodiy topshirqlarni qo'llab o'tkaziladi. "Kelajakga sayoxat" texnologiyasi 4 bosqichda amalga oshiriladi:

Mashg'ulot 2-qismi – 120 daqiqa.

Talabalar juftliklarga bo‘linadi. Har bir juftliklarda ishlash qoidalari tushuntirib, ularga ijodiy topshiriqlar beriladi. Texnika va mehnat xavfsizligi hamda sanitariya-gigiena qoidalari tartibi va ish jarayonida yo‘l qo‘yiladigan nuqsonlar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari haqida ma’lumot beriladi.

#### Juftlikda/hamkorlikda ishlash qoidalari

Juftlikda/hamkorlikda ishlash-o‘qitishning dialogga ko‘maklashuvchi ijtimoiy shaklidir.U muvofiqlashtirish qobiliyatini o‘rganishga yordam berishi hamda fikr almashish va o‘zaro yordam tufayli qiziqtirishni va natijani yaxshilash mumkin. Bu shaklda o‘qitishni qisqa muddatda ham qo‘llash mumkin. Juftlikda/hamkorlikda ishlashda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarga kutilmaganda vaqtga bo‘lgan ehtiyojning oshishi, o‘quvchining bajarilgan ishga qo‘shgan shaxsiy hissasiga nisbatan etarlicha baholanmaganligi yoki o‘quvchilarning ishga mazmunga bog‘liq bo‘lmagan mavzular bilan bandligi kiradi. Buni bartaraf etish uchun o‘qituvchi talabalardan bajarilgan ish natijalari to‘g‘risida hisobot so‘rashi, zarur hollarda o‘zining fikrini bildirishi va natijani izohlashi lozim.

Talabalar o‘zlariga kerakli topshiriqlarni hamkorlikda bajaradilar

1.Tayyorlov va rejalashtirish bosqichi: Bu bosqichda o‘qituvchi mavzuga oid savollar, topshiriqlar yoki muammoli vaziyatlar, tarqatma materiallar, zamonaviy moda eskizlari, chizilgan rasmlar, slaydlar ishlab chiqadi.Ko‘rish, eshitish, qabul qilish va sezishni ta‘minlovchi ko‘rgazmali materiallardan foydalanadi.Xarakterli foto materiallarni qo‘llaydi.

Talabalarga juftliklarda ishlash uchun, o‘quv qurollar va didaktik vositalar tayyorlanib tarqatiladi. Shulardan foydalanib o‘qituvchi juftliklarga savollar yoki topshiriqlar hamda rasm chizilgan qog‘oz varaqalarini tarqatadi.

#### 1-juftlik

1.Ayollar ustki kiyimlarining turli xildagi eskizi modellarini AutoCAD dasturida chizib bo‘yang?

#### 2- juftlik

1.Ayollar ustki kiyimlarining turli xildagi eskizi modellarini AutoCAD dasturida chizib bo‘yang?

#### 3- juftlik

1.Har xil uslublarda ayollar ustki kiyimlarining eskizi modellarini AutoCAD dasturida chizib bo‘yang?

#### n.....juftlik

2. “Konstruktiv va kritik fikrlash” bosqichi:O‘quvchilar berilgan savol yoki topshiriq mazmuniga oid muammo va kamchiliklarni aniqlaydilar. Mavzuga oid savollarni topshiriqlarni muhokama qiladilar.Qiziqtiruvchi savollardan foydalanadilar.Ayollar ustki kiyimlari eskizi modellarini yaratish.Ayollar ustki kiyimlarini bo‘yab, bezashda ishlatiladigan naqshlar, munchoqlar va furnituralar.Ayollar ustki kiyimlarini uslublarda bezashda, ishlab chiqarishdagi muammolar haqida bir qator muammolarni o‘ylab topadilar. Barcha ishtirokchilar fikrlashi muhim.Barcha fikrlar ichidan 10 ta eng muhim tanlab olinadi.

3.“Fantaziya” bosqichi. O‘quvchilar har bir muammo echimi bo‘yicha bir nechta g‘oyalarni ilgari suradilar.Muhokama orqali har bir muammo

echimi bo'yicha eng yaxshi g'oyalarni tanlab oladilar. Masalan Ayollar ustki kiyimlarini eskizini yaratib, bo'yab, naqshlar bilan munchoqlar va furnituralar bilan bezash va h.k. G'oya va fikrlarni umumlashtirish va baholash boshlanadi. Barcha g'oya va fikrlarni ko'rgazmali qilib tasvirlanadi. Takliflarni ko'rgazmali aks ettiruvchi taqdimot tayyorlanadi.

4. Amalga oshirish bosqichi. Muammolarni hal qilishga qaratilgan g'oyalarni amalga oshirish imkoniyatlarini aniqlaydilar. Assosiy takliflarni shakllantiradilar. Talabalar va aniq Ayollar ustki kiyimlari eskizi modellarini chizish va bo'yash. Ayollar ustki kiyimlarini bezashda ishlatiladigan naqshlar, munchoqlar va furnituralar aniqlaydilar. 5 va 15 yillikda amalga oshiriladigan tadbirlarni aniqlaydilar. Umumlashtirilgan loyihani tayyorlaydilar. Loyihani amalga oshirish rejasini ishlab chiqadilar va taqdimotni amalga oshiradilar.

Hamkorlikda bajarilgan topshiriqlarni baholash

1. O'qituvchi kuzatuvlar asosida, alohida juftlik a'zolarining individual yutuqlarini hamda juftliklar bajargan ishlarni baholaydi. Bu ikkala bahoning o'rtacha qiymati natijani beradi.

Bu usul o'qituvchining kuzatish qobiliyatiga juda yuqori talablar qo'yadi.

2. Juftlikning alohida a'zolari boshqa barcha juftlik a'zolarining individual yutuqlarini baholaydi. Barcha baholarning o'rtacha qiymati har bir kishi uchun alohida individual bahoni beradi.

Bu usul o'quvchilarda o'z-o'zini baholash kompetenstiyalarning rivojlanishiga ko'maklashadi va o'qituvchining baholashga muvozanatni ko'rsatadi.

3. Har bir juftlik a'zosi juftlikning umumiyligi natijasi uchun baho oladi. Bu usulda baholash obektivligini biroz yo'qotadi, chunki unda individual bajarilgan ish hisobga olinmaydi. Biroq, o'quvchilarning hamkorlikdagi ishi uchun ma'suliyat hissiyotini ham kuchaytirish mumkin.

4. Juftliklar o'z-o'zini baholaydi va uni o'qituvchi o'zining bahosi bilan solishtiradi hamda yakuniy natijani chiqarishda 50 % ga hisobga oladi. Bu usul o'quvchilarni baholash bilimdonligiga o'rgatish uchun qo'l keladi.

5. Juftlikda ish yakunlangandan so'ng juftlik ishi mazmuni yozma ravishda tekshiriladi va buning uchun har bir o'quvchi individual baho oladi.

Agar ta'lim oluvchiga ushbu xususiyatlarni shakllantirilmasa shaxs imkoniyatlari ro'yobga chiqmaydi shuning uchun ham ta'lim texnologiyalari va metodlari o'quvchining mavjud imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqishiga qiziqish, uyg'onish mustaqil o'rganishga havas ortirishiga yo'naltirish lozim biz kelajakka sayoxat texnologiyasidan foydalanib, talabalarning mustaqil o'rganishiga qaratilgan dars ishlanmasini keltirdik.

O'qituvchi ular chizgan har xil model eskizilarining AutoCAD dasturida bo'yalishini, bezashini, chizilishini tahlil qilib yakuniy suhbat o'tkazadi va kelgusida qaysi jihatlariga e'tibor berish kerakligini aytib o'tadi.

Ayollar ustki kiyimlari eskizi modellarini AutoCAD dasturida yaratish bo'yicha ijodiy topshiriqlarni bajaradilar.

Topshiriqni bajarishda ijodiy yondashuv ham alohida baholanishi kerak. Ishni tayorlayotganda talaba ijodiy ish mahsuli sifatida biron bir buyum yoki kompozitsiya yaratadi. Talabalar bajargan ishni baholash orqali ularning

mustaqil va ijodiy qobiliyatları haqida ham ma'lumotga ega bo'lishi mumkin.

### III. Yakuniy qism –20 daqiqa.

Juftliklarda qituvchi talabalar ishini kuzatib turadi. Ishni sifatli bajargan talabalar rag'batlantiriladi. O'qituvchi bajargan topshiriqlarini tekshirib, ularni ma'lum mezonlar asosida baholaydilar. Topshiriqni bajarishda ijodiy yondashuv ham alohida baholanishi kerak. Talabalar bajargan ishini baholash orqali ularning mustaqil va ijodiy qibiliyatları haqida ham ma'lumotga ega bo'lishi mumkin. Talabalar ishini quyidagi tarzda baholash ham mumkin: talaba ishni bajara olmadi qoniqarsiz (2 baho), qoniqarli (3-baho), yaxshi (4-baho), a'lo darajada bajardi (5-baho).

Ushbu ta'llim texnologiyasi texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fanlarini o'qitishda qo'llanilganda talabalarning mustaqil ishlash va erkin hamda kritik fikrlash qibiliyatları rivojlantiriladi. Shuningdek talabalarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari oshadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

Xasanboyeva G.K. Kostyum dizayni. Darslik - T. : TTESI, 2013.

А.Р.Жўраев, Д.А. Сайфуллаева, Ш.Бахронова Замонавий таълим технологиялар асосида ташкил қилинадиган шахсга йўналтирилган таълим жараёни // Science and Education. № 2020.Б.169-176

Dilafruz Ahmadovna Sayfullayeva. "Methodology of using innovative technologies in technical institutions". PSYCHOLOGY AND EDUCATION. Scopus International Journal.(2021) 58(1)

Sayfullayeva D.A Innovative and Individual Approach in Professional and Vocational Training of Young People with Disabilities. Eastern European Scientific Journal. Ausgabe 6- 2017 Part I.- P.154-157

Sayfullayeva D.A., Juraev A.R., Toshev Yu.N. Innovative project of preparation of students for professional activity // Научно-методический журнал вестник науки и образования № 19 (97). Часть 2. 2020.C.48

Olimov Kakhramon Tanzilovich, Sayfullaeva Dilafruz Ahmedovna, Khimmataliev Dustnazar Omonovich, Ashurova Sanobar Yuldashevna, Gaffarov Feruz Hasanovich.Teaching Special Subjects for Students with Disabilities in Preparation for the Profession by Using Innovative Educational Technologies. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1S, November 2019.B.425-429.

Dilafruz Ahmadovna Sayfullayeva, Kakhkhorov Sobir Kh., Bahronova Sh.I.Increasing the.professional creativity of students in teaching specialties. Проблемы современной науки и образования Научно-методический журнал. 2020. № 12 (157). Часть 2 C.33

Sayfullayeva D.A., Mirdjanova N.N., Saidova Z.Kh. Развитие профессиональных компетенций и творческих способностей студентов высших учебных заведений // Научно-методический журнал вестник науки и образования № 2020.19 (97). Часть 2.C.55